

2025-yil 30-iyul

Yanvar-iyun oylarida kimyo sanoatida barqaror o'sish qayd etildi

2025-YILNING 1-YARIM YILLIGIDA ISHLAB CHIQRISH KO'RSATKICHLARI



uzkimyosanoat.uz | [@uzkimyosanoat](https://twitter.com/uzkimyosanoat) | [uzkimyosanoat.uz](https://www.instagram.com/uzkimyosanoat) | [uzkimyosanoat](https://www.facebook.com/uzkimyosanoat) | [@uzkimyosanoat](https://www.youtube.com/channel/UC...)

Joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida mamlakatimizda kimyo sanoatida yuqori faollik va ijobiy natijalar qayd etildi. Mazkur davrda sohada 9,4 trln so'mlik tovar mahsulotlari ishlab chiqarilib, belgilangan reja 107,3 foizni tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,1 foizlik o'sishni anglatadi.

Kimyo korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar orasida mineral o'g'itlar muhim o'rin tutadi. Hisobot davrida sof holda jami 673,2 ming tona mineral o'g'itlar ishlab chiqarildi. Bu rejaga nisbatan 96,9 foizni tashkil etib, 100,9 foizlik o'sishga erishildi.

Jumladan:

Azotli o'g'itlar — 512,5 ming tona (reja - 96,5 foiz, o'sish - 102,4 foiz);

Fosforli o'g'itlar — 55,7 ming tonna (reja - 96,8 foiz, o'sish - 91 foiz);

Kaliyli o'g'itlar — 105,0 ming tonna (reja - 99 foiz, o'sish - 99,4 foiz).

Ushbu ko'rsatkichlar kimyo sanoatida ishlab chiqarish hajmi barqaror ravishda oshib borayotganini va ichki hamda tashqi bozorda mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish imkoniyati kengayayotganini ko'rsatadi.

Sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va investitsiya loyihalarining samarasi bu natijalarda o'z aksini topmoqda. Kelgusida mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda lokalizatsiya darajasini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash sohaning asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yanvar-iyun-oylarida-kimyo-sanoatida-barqaror-o-sish-qayd-et>